




NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2023- yil yanvar oyi
uchun dastlabki ma'lumot)

Navoiy viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2023- yil yanvar oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **83,3** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **105,5** % ni tashkil etdi.




TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar, mln. AQSH dollari)

	2022- yil	2023- yil	O'tgan yilga nisbatan, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	78,9	83,3	105,5	x
Eksport 	26,9	44,5	165,2	100,0
 <u>tovarlar</u>	25,9	44,4	171,4	99,8
 <u>xizmatlar</u>	1,0	0,1	8,7	0,2
Import 	52,0	38,8	74,6	100,0
 <u>Tovarlar</u>	50,6	37,0	73,1	95,5
 <u>xizmatlar</u>	1,4	1,8	129,4	4,5
Saldo 	- 25,1	5,7	x	x

Ma'lumot uchun: Navoiy viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Navoiy viloyati jahonning **41** ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Fransiyada (**38,1** %), Xitoy Xalq Respublikasida (**14,1** %), Qozog'istonda (**11,1** %), Rossiya Federatsiyasida (**8,9** %) va Turkiyada (**5,1** %) qayd etilgan.

NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Fransiya	31,7	31,5	0,2	38,1
Xitoy Xalq Respublikasi	11,7	0,1	11,6	14,1
Qozog'iston	9,3	1,4	7,9	11,1
Rossiya Federatsiyasi	7,5	4,3	3,2	8,9
Turkiya	4,2	1,8	2,4	5,1
Hindiston	1,9	-	1,9	2,3
Estoniya	1,8	-	1,8	2,2
Qirg'iz Respublikasi	1,8	1,5	0,3	2,1
Afg'oniston	1,7	1,7	-	2,0
Chexiya Respublikasi	1,5	-	1,5	1,8

So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Afg'oniston bilan TSA da so'ngi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'ngi uch yilda TSA Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Afg'oniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Fransiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Hindiston, Estoniya, Chexiya Respublikasi, Kanada va Shvetsiya hissasiga to'g'ri kelgan.

NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar, mln. AQSH dollari)



Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Fransiya	0,1	0,5	31,7
<i>Eksport</i>	-	-	31,5
<i>Import</i>	0,1	0,5	0,2
Xitoy Xalq Respublikasi	5,2	14,2	11,7
<i>Eksport</i>	2,0	-	0,1
<i>Import</i>	3,2	14,2	11,6
Qozog'iston	2,0	12,1	9,3
<i>Eksport</i>	0,5	1,1	1,4
<i>Import</i>	1,5	11,0	7,9
Rossiya Federatsiyasi	14,8	32,1	7,5
<i>Eksport</i>	1,3	19,7	4,3
<i>Import</i>	13,5	12,4	3,2
Turkiya	7,5	3,3	4,2
<i>Eksport</i>	3,3	1,8	1,8
<i>Import</i>	4,2	1,5	2,4
Hindiston	0,3	3,0	1,9
<i>Eksport</i>	0,1	-	-
<i>Import</i>	0,2	3,0	1,9
Estoniya	0,1	-	1,8
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,1	-	1,8
Qirg'iz Respublikasi	0,4	0,8	1,8
<i>Eksport</i>	0,4	0,8	1,5
<i>Import</i>	-	-	0,3
Afg'oniston	0,5	1,1	1,7
<i>Eksport</i>	0,5	1,1	1,7
<i>Import</i>	-	-	-
Chexiya Respublikasi	0,2	0,5	1,5
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,2	0,5	1,5

NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar, mln. AQSH dollari)



Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Kanada	19,5	1,2	1,1
<i>Eksport</i>	19,0	-	-
<i>Import</i>	0,5	1,2	1,1
Shvetsiya	0,2	-	1,1
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,2	-	1,1
Buyuk Britaniya	0,2	-	1,0
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,2	-	1,0
Belarus Respublikasi	-	-	1,0
<i>Eksport</i>	-	-	0,9
<i>Import</i>	-	-	0,1
Belgiya	-	-	0,8
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	-	-	0,8
Litva	13,6	1,0	0,8
<i>Eksport</i>	0,4	0,5	0,3
<i>Import</i>	13,2	0,5	0,5
Germaniya	1,7	0,7	0,7
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	1,7	0,7	0,7
Daniya	-	-	0,7
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	-	-	0,7
Pokiston	-	-	0,6
<i>Eksport</i>	-	-	0,3
<i>Import</i>	-	-	0,3
Eron Islom Respublikasi	0,3	2,2	0,5
<i>Eksport</i>	-	-	0,3
<i>Import</i>	0,3	2,2	0,2

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	83 302,1	105,5
Navoiy sh.	49 874,1	129,4
Zarafshon sh.	662,0	49,9
G'ozg'on sh.	8,9	34,4
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	19 499,5	70,8
Konimex	304,0	2,5 b.
Qiziltepa	6 065,3	2,6 b.
Navbahor	4 056,9	139,8
Nurota	291,1	22,8
Tomdi	214,1	175,3
Uchquduq	612,2	14,3
Xatirchi	1 588,8	3,7 b.
Bo'linmaydigan hajm	125,2	-

**Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari**



1

Navoiy sh. – 49 874,1

2

Karmana t. – 19 499,5

3

Qiziltepa t. – 6 065,3

**Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari**



1

G'ozg'on sh. – 8,9

2

Tomdi t. – 214,1

3

Nurota t. – 291,1


Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **59,9 %** ulush bilan **49 874,1** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni G'ozg'on shahri **0,01 %** ulush bilan **8,9** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yil yanvar oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **23,8 %** ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar oyida 2022- yilning shu davriga nisbatan **2,0 b. ni**, jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi **76,2 %** ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI


(2023- yil yanvar)



Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi **44,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **165,2** % ni tashkil etdi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar, ulushi, % da)



Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**73,6** %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**14,0** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**6,8** %) hissasiga tog'ri kelmoqda.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar, yillar kesimida)




XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan % da
	2022	2023		
Jami eksport	26,9	44,5	165,2	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1,1	3,0	2,7 b.	6,8
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	17,5	0,2	1,0	0,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	1,0	-	2,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,8	32,7	39,0 b.	73,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	5,3	6,3	117,2	14,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	-	0,2	-	0,4
Turli xil tayyor buyumlar	1,2	1,0	86,3	2,3
Xizmatlar	1,0	0,1	8,7	0,2

2023- yilning yanvar oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2022- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2022- yilning mos davriga nisbatan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlarining eksport tarkibida o'sish kuzatildi.




NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSH dollari)




Navoiy viloyatida 2023- yil yanvar oyida eksport hajmi **44,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yilning yanvar oyida MDH mamlakatlariga **8,4** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **18,8** % ini tashkil etdi.

NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar, % da)



2023- yilning yanvar oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Fransiya (eksport umumiy hajmining **70,7** %), Rossiya Federatsiyasi (**9,6** %), Turkiya (**4,1** %), Afg'oniston (**3,7** %), Qirg'iz Respublikasi (**3,4** %), Qozog'iston (**3,1** %) va Belarus Respublikasi (**1,9** %), saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi **96,5** % ni tashkil etmoqda.

NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar, yillar kesimida)*



Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	O'rni
	2022	2023		
Fransiya	-	31 461,6	-	1
Rossiya Federatsiyasi	19 710,6	4 270,5	21,7	2
Turkiya	1 772,3	1 843,6	104,0	3
Afg'oniston	1 068,7	1 659,0	155,2	4
Qirg'iz Respublikasi	839,2	1 494,9	178,1	5
Qozog'iston	1 090,2	1 363,4	125,1	6
Belarus Respublikasi	22,5	851,4	37,8 b.	7
Tojikiston	285,5	368,5	129,0	8
Litva	517,7	281,5	54,4	9
Pokiston	-	261,8	-	10
Eron Islom Respublikasi	7,6	250,2	33,1 b.	11
Polsha	321,8	188,6	58,6	12
Xitoy Xalq Respublikasi	4,9	74,2	15,1 b.	13
Aljir	-	52,3	-	14
Gonkong	-	23,2	-	15
Bolgariya	-	22,1	-	16
Ozarbajon	154,6	13,4	8,7	17
BAA	-	12,6	-	18
AQSH	62,0	0,5	0,8	19
Ukraina	66,4	0,3	0,5	20

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni **26** tani tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2023- yil yanvar)

Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	44 513,4	165,2
Navoiy sh.	32 457,5	174,8
Zarafshon sh.	138,4	114,0
G'ozg'on sh.	8,9	34,4
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	3 605,6	94,4
Konimex	224,1	2,2 b.
Qiziltepa	4 352,2	2,6 b.
Navbahor	2 942,4	138,0
Nurota	286,4	112,4
Tomdi	132,4	-
Uchquduq	5,5	13,8 b.
Xatirchi	340,8	163,2
Bo'linmaydigan hajm	19,2	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



1

Navoiy sh. – 32 457,5

2

Qiziltepa t. – 4 352,2

3

Karmana t. – 3 605,6

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



1

Uchquduq t. – 5,5

2

G'ozg'on sh. – 8,9

3

Tomdi t. – 132,4

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **72,9** % ulush bilan **32 457,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyi ulushni Uchquduq tumani **0,01** % ulush bilan **5,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORT DINAMIKASI

(yanvar, % da)

XSST tarkibi	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2,7	4,2	6,8
Ichimliklar va tamaki	-	-	-
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	1,9	65,0	0,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,8	-	2,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	65,5	3,1	73,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	22,8	19,8	14,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,9	-	0,4
Turli xil tayyor buyumlar	1,9	4,4	2,3
Xizmatlar	2,5	3,5	0,2

2023- yil yanvar oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlari ulushi **8,1** punktga oshib **73,6** % ni, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlari ulushi **4,1** punktga oshib **6,8** % ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI


(yanvar, mln. AQSH dollari)

XSST tarkibi	Fransiya		Rossiya Federatsiyasi		Turkiya		Afg'oniston	
	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.
Jami eksport	-	31,5	19,7	4,3	1,8	1,8	1,1	1,7
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	-	-	-	-	-	-	1,1	1,7
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	-	-	16,6	-	-	0,1	-	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	-	0,1	-	0,9	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	-	31,5	-	-	-	-	-	-
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	-	-	1,7	3,1	1,3	0,8	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	-	-	-	0,1	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	-	1,0	0,9	-	-	-	-
Xizmatlar	-	-	0,4	0,1	0,5	-	-	-

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari kiradi.

XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi **0,1** mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **0,2** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **8,7** % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (**49,5** %), transport xizmatlari (**31,1** %) va safarlar (turizm xizmatlari) (**19,4** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2023- yil yanvar, ming AQSH dollari)

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **1 178,6** ming AQSH dollar qiymati **1 568,6** tonna meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2022- yilning mos davriga nisbatan **22,7** b. ni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash jami eksport hajmida **2,6** % ni tashkil etmoqda. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Qiziltepa tumanida **515,9** ming AQSH dollarini, Navbahor tumanida **314,7** ming AQSH dollarini, Konimex tumanida **195,8** ming AQSH dollarini, Xatirchi tumanida **92,1** ming AQSH dollarini va tashkil etmoqda.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar)

Davlatlar	2022- yil			2023- yil		
	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi*, % da	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi*, % da
Qozog'iston	24,2	2,4	4,7	1 366,6	772,4	65,5
Pokiston	-	-	-	93,0	261,8	22,2
Xitoy Xalq Respublikasi	-	-	-	51,0	72,9	6,2
Aljir	-	-	-	36,0	52,3	4,5
Eron Islom Respublikasi	-	-	-	22,0	19,2	1,6
Isroil	13,5	27,0	52,0	-	-	-
Belarus Respublikasi	39,1	22,5	43,3	-	-	-

* qiymat ifodasidan

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (**65,5** %), Pokiston (**22,2** %) va Xitoy Xalq Respublikasi (**6,2** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

NAVOIY VILOYATINING IMPORTI

(2023- yil yanvar)



2023- yil yanvar oyida import hajmi **38,8** mln. AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **74,6** % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (**41,8** %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**28,9** %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**13,8** %) ga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar oyida import qilingan tovarlar hajmi **37,0** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **1,8** mln. AQSH dollariga yetdi.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (yanvar, yillar kesimida)




XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan % da
	2022	2023		
Jami import	52,0	38,8	74,6	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1,6	2,2	136,8	5,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,6	0,9	148,1	2,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4,7	0,1	2,0	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,1	-	0,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	4,4	5,4	121,0	13,8
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	12,8	11,2	87,4	28,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	22,1	16,2	73,6	41,8
Turli xil tayyor buyumlar	4,4	0,9	21,0	2,4
Xizmatlar	1,4	1,8	129,4	4,5

Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**41,8 %**), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**28,9 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**13,8 %**) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**5,8 %**) hissasiga to'g'ri keladi.

Import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2022- yilning mos davriga nisbatan nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (**48,1 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**36,8 %**), xizmatlar (**29,4 %**) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**21,0 %**) o'sgan.




NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSH dollari)



Navoiy viloyatida 2023- yil yanvar oyida import hajmi **38,8** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.


MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich **29,6** va **70,4** % ni tashkil etdi.



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Hindiston, Estoniya va Chexiya Respublikasi) jami importning **78,4** % ini tashkil qiladi, bu **30,4** mln. AQSH dollarini tashkil etadi.

NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar, % da)



NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar, yillar kesimida)



Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	O'rni
	2022	2023		
Xitoy Xalq Respublikasi	14 164,9	11 634,1	82,1	1
Qozog'iston	10 993,7	7 923,5	72,1	2
Rossiya Federatsiyasi	12 419,2	3 184,7	25,6	3
Turkiya	1 531,4	2 428,9	158,6	4
Hindiston	2 964,1	1 909,6	64,4	5
Estoniya	-	1 815,6	-	6
Chexiya Respublikasi	486,0	1 526,3	3,1 b.	7
Kanada	1 179,7	1 120,0	94,9	8
Shvetsiya	-	1 085,2	-	9
Buyuk Britaniya	14,5	979,0	67,3 b.	10
Belgiya	1,8	805,8	453,4 b.	11
Germaniya	687,9	736,2	107,0	12
Daniya	-	693,8	-	13
Litva	477,2	497,4	104,2	14
Koreya Respublikasi	1 614,6	447,2	27,7	15
Qirg'iz Respublikasi	25,2	264,8	10,5 b.	16
Pokiston	-	264,0	-	17
Fransiya	489,0	236,9	48,4	18
Eron Islom Respublikasi	2 227,8	227,2	10,2	19
Gonkong	199,9	195,5	97,8	20

2023- yil yanvar oyi yakuni bo'yicha **34** ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	38 788,7	74,6
Navoiy sh.	17 416,6	87,2
Zarafshon sh.	523,6	43,5
G'ozg'on sh.	-	-
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	15 893,9	67,0
Konimex	79,9	4,3 b.
Qiziltepa	1 713,1	2,6 b.
Navbahor	1 114,5	144,7
Nurota	4,7	0,5
Tomdi	81,7	66,9
Uchquduq	606,7	14,1
Xatirchi	1 248,0	5,8 b.
Bo'linmaydigan hajm	106,0	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



1

Navoiy sh. – 17 416,6

2

Karmana t. – 15 893,9

3

Qiziltepa t. – 1 713,1

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



1

Nurota t. – 4,7

2

Konimex t. – 79,9

3

Tomdi t. – 81,7

Viloyatning import tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **44,9** % ulush bilan **17 416,6** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Nurota tumani **0,01** % ulush bilan **4,7** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI (yanvar, % da)


XSST tarkibi	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2,6	3,1	5,8
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	0,9	1,2	2,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,1	9,0	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	0,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	10,9	8,5	13,8
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	3,7	24,7	28,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	63,9	42,4	41,8
Turli xil tayyor buyumlar	16,2	8,5	2,4
Xizmatlar	1,7	2,6	4,5

2023- yil yanvar oyida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlarda 2022- yilning mos davriga nisbatan importning ulushi **8,5 %** dan **13,8 %** gacha, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlarida importining ulushi **24,7 %** dan **28,9 %** gacha, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlarda esa **3,1 %** dan **5,8 %** gacha o'sdi.

2023- yil yanvar oyi yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **1,8** mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining **4,5** % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **129,4** % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**83,9** %), safarlar (turizm xizmatlari) (**0,1** %) va boshqa xizmatlar (**16,0** %) dan iborat bo'ldi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar, ulushi, % da)



Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**

Tel.: (99879) 223-50-43